



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 14-oktabr

536-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 9-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PF–143-son Farmoni ijrosi haqida”gi 468-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PF–143-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 9-oktabrdagi 468-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 9-oktabrdagi 468-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF–143-son Farmoni bilan:

Aholining yuqori daromadli barqaror ish bilan bandligini ta‘minlash, yoshlarning innovatsion va raqamli texnologiyalarga asoslangan ta‘lim olishi va kasb-hunar o‘rganishi, barcha qatlamlarning tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoit yaratish hamda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlarida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga 2024-yilning qolgan davrida 500 ming, 2025-yilda 1 million nafar aholini kambag‘allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilanganligi;

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligining kambag‘allikni qisqartirish sohasida erishilgan ijobiy natijalar va to‘plangan milliy tajriba hamda ilg‘or xalqaro amaliyot asosida har bir fuqaroni o‘zi va farzandlari kelajagi uchun mas‘uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini (keyingi o‘rinlarda — Dastur) amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

belgilanishicha, Dastur 2024-yil 1-noyabrdan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi “Kambag‘al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas‘uliyat” tamoyili asosida amalga oshirilishi:

barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish — tadbirkorlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatish hamda har bir mahallaga yetakchi tadbirkorlarni jalb qilish, tomorqadan samarali foydalanish, har bir tuman va shaharda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beruvchi kamida 5 tadan “drayver” loyihalarni amalga oshirish, qo‘shimcha 50 ming gektar ekin maydonlarini kambag‘al oilalarga ijaraga berish, ularga kichik ishlab chiqarish uskunalari, ko‘chma do‘kon, motoroller, skuter kabi vositalarni bo‘lib to‘lash sharti bilan berish;

ta‘lim olish va kasb-hunar o‘rganish — 2024-2025 yillarda kambag‘al oilalar farzandlarining maktabgacha ta‘lim bilan qamrov darajasini 80 foizga yetkazish, oilaning kamida bitta farzandini xorijiy tillarga, kasb-hunarga yoki mutaxassislikka o‘qitish, bitta farzandi, xususan, qiz farzandining oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi uchun sharoit yaratish, bolalarni kompyuter savodxonligiga o‘rgatish, axborot texnologiyalari va

dasturlash bo'yicha o'quv kurslarida o'qishi uchun sharoit yaratish, shu jumladan, maktablarda to'garaklar tashkil etish;

kafolatlangan davlat tibbiy xizmatidan foydalanish — kambag'al oilalarning har bir a'zosi bir yilda bir marta to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishi, ularning o'z sog'lig'i uchun mas'uliyatini oshirishi (kundalik turmush tarzi va ovqatlanishda zararli odatlardan voz kechishi), har bir farzandi sport to'garaklariga qatnashishi uchun imkoniyatlar yaratish, oilaning tibbiy xizmatlarga o'z hisobidan sarflaydigan xarajatlarini ikki barobar qisqartirish;

ijtimoiy xizmatlardan foydalanish — ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish orqali oilalarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi omillarni bartaraf etish, xususan, o'z galar parvarishiga muhtoj shaxslarga kunduzgi qatnov asosida qarab turish, bolalarni tarbiyalash va kunduzgi parvarishlash xizmatlarini yo'lga qo'yish;

yashash sharoitlarini yaxshilash — ipoteka tizimidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, mahallalarda ekologik toza materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda zamonaviy «yashil» turarjoylarni qurish yoki rekonstruksiya qilish, toza ichimlik suvni yetkazish, xonadonlarda energiya tejovchi innovatsion yoritish, isitish va issiq suv ta'minoti hamda chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini joriy etish;

davlat tomonidan mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish — tomorqalarni sug'orish suvi, mahallani elektr energiyasi va internet bilan uzluksiz ta'minlash hamda uning tuman markazi bilan transport jihatidan bog'langanligini yaxshilash, ichki yo'llarni ta'mirlash, hududlarni jadal kompleks rivojlantirish dasturlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish;

davlat organlari xodimlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish — barcha bo'g'indagi davlat hokimiyati organlari kambag'al oilalar bilan muntazam to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatishi, birdamlikda harakat qilishi hamda rahbarlarni kambag'al oilalarga birlashtirish, ularning muammolarini birgalikda yechishga ko'maklashish;

“Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Komissiya) ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilganligi va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda uning hududiy organlari Respublika va hududiy komissiyalarning ishchi organlari etib belgilanganligi;

belgilanishicha, 2024-yil 1-dekabrda boshlab “mahalla yetiligi” tomonidan kambag'al oilalarning ijtimoiy sharoiti va kambag'allikka tushish sabablarini o'rganish natijasida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan Kambag'al oilalar reestri shakllantirilishi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

a) kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam olayotgan oilalarning rasmiy band bo'lmagan a'zolari ishga joylashganda, o'zini o'zi band qilganda yoki tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yganda ushbu nafaqa va moddiy yordamni ularning muddati tugagunga qadar, biroq 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatga to'lash davom ettirilishi;

b) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,5 baravaridan kam bo'lmagan oylik ish haqi to'langan holda ishga joylashgan Kambag'al oilalar reestriga kiritilgan oila a'zosi uchun ijtimoiy soliq uch yil davomida 1 foiz stavkada to'lanishi;

v) kambag'al oilalarga ko'mak choralari ijtimoiy shartnoma asosida mehnatga layoqatli oila a'zolarining bandligini ta'minlash, o'z tomorqasidan samarali foydalanish (ekin ekish), oila a'zolari, shu jumladan, farzandlarining bilim olishi, kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rganishi hamda sog'lig'ini nazoratga olishi, uy-joyini ozoda tutishi kabi shartlar inobatga olingan holda ko'rsatilishi;

bunda ijtimoiy shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, ijtimoiy yordam va xizmatlar (ijtimoiy nafaqadan tashqari) ko'rsatish to'xtatilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jo'rabayev), Mingbuloq tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlari markazi (E.Abdurahmonov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda “O'zbekiston-2030” strategiyasi doirasida 2025-yil uchun ishlab chiqiladigan davlat dasturi “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari bilan uyg'unlikda ishlab chiqilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov